

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MILLIY, XALQONA MAQOLLAR VA ULARNING O‘XSHASH VA FARQLI JIHLATLARI

Ashirboyeva Sevinch Axrorjonovna

Samarqand viloyati Payariq tumani 67- umum ta’lim maktab ingliz tili o‘qituvchisi

E-mail: Mirjalolxonmuslimaxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘zbek va ingliz tillaridagi milliy va xalqona maqollar va ularning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Xalq og‘zaki janri b o‘lgan maqol qisqa va lo‘nda obrazli va obrasiz Grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli muayyan aniq shaklga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek va ingliz tilidagi maqollar; vatan, oila, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik haqidagi maqollar.

ABSTRACT

National and folk proverbs in Uzbek and English and their similarities and differences are considered. Proverb (from Latin: proverbium) is a simple, traditional saying that expresses a perceived truth based on common sense or experience.

Key words: Proverbs in Uzbek and English languages; Hometown, family, good and bad, friendship.

KIRISH

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassam bo‘lgan . Asrlar mobaynida Xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm- hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan.

Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterlanadi. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi (“Kattaga hurmatda bo‘l – kichikka izzatda bo‘l”) va boshqalar.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning “Devonu lug‘utit turk” asarida keltirgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli ko‘rinishlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg‘ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabidir.

G. L. Permiakov quydagicha fikr yuritgan ; Maqollardagi bir xillik unversallikni ta'minlaydi k o'p hollarda alohida xususiy manoga ega b o'ladi. Natijada maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan uzviy bog'liq . Uni faqat bir millatga tegishli deyish noto'g'ri.

Ingliz va o'zbek tillaridagi milliy va xalqona maqollarni o'xshash tomonlarini ko'rib chiqadigan b o'lsak mavzu doirasi juda keng ekanligi fikrimizning isbotidir.

To show an example:

The fairer the hostess, the fouler the reckoning O'zbek tilidagi ekvivalenti quydagicha bo'ladi; Uying tor bo'lsa ham – ko'ngling keng Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliymadaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, "maqollar t o'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati Mentalitet" tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p b o'lmagan b o'lsada, hozirda juda keng doirada q o'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet "fikrlash doirasi, dunyoqarashi" mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa "xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi".

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu "xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir". Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu "milliy xarakter" xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'zni bilan ham chambarchas bog'liq.

Ingliz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, ingliz xalqining xarakteri haqida so'z yuritib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari mag'rur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham o'z aksini topadi:

Inglizcha: Better die a beggar than live a beggar.

O'zbekcha tarjimasi: Kambag'al b o'lib yashagandan kambag'al b o'lib o'lgan afzal."bo'lsin.

Mehmon kelsa eshikdan risqi kelar teshikdan

Mehmon –atoyi xudo

Separate the husk from the grain

O'zbekcha tarjimasi; yaxshini bil s o'zidan –yomonni bil k o'zidan

Hope for the best and prepare for the worst

O'zbekcha tarjimasi; Yaxshilik yog'och boshida – yomonlik oyoq ostida

O'zbek xalq maqollarida esa quydagicha; Yaxshilarga yondashtir yomonlardanadashtir,

Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilur

Baliq bilmasa , xoliq bilur.

Every cook praises his own broth – Har bir oshpaz o‘z sho‘rvasini maqtaydi.

Too many cooks spoil the broth – Oshpaz k o‘p b o‘lsa, sho‘rva buziladi.

O‘zbek tilida: Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.

Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye.

Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye.

Inglizcha maqol : A bad excuse is better than none

O‘zbekcha ekvivalenti: Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,

Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Inglizcha maqol: A good beginning makes a good ending

O‘zbekcha: Yaxshi yil – bahoridan,

Yomon kun – saharidan ma’lum.

Inglizcha maqol: After rain comes sunshine

O‘zbekcha ekvivalenti: Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, O‘n beshi yorug‘ bo‘ladi.

Health is better than wealth – Sog‘lik oltindan qimmat .

A sound mind in a sound body – Sog‘ tanda sog‘lom aql.

Wait and see – Sabr tagi sariq oltin.

Like mother, Like daughter – Onasini ko‘rib qizini ol.

Ingliz va o‘zbek xalq maqollari xalq og‘zaki ijodining paremiologiya sohasi bo‘yicha o‘rganiladi va o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya’ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o‘z va ko‘chma ma’nolarda q o‘llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqollarda ibratlilik, pand-nasihah kabi jihatlar ustun turishi orqali o‘zining umuminsoniy jihatlarini k o‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi k o‘pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma’no-mazmunga maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan b o‘lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi k o‘rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” I tom. -Toshkent.: 1960.
2. Mirzayev T. “ O‘zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.
3. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Toshkent, 2008

Internet saytlari

5. <https://uz.wikipedia.org/w/in dex.php>.
6. <http://www.yourdictionary.com>
7. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.htm>